XALQ DEPUTATLARI BERUNIY TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 10-dekabr VII-3-012-13-182-K/24 Beruniy tumani

Xalq deputatlari Beruniy tumani Kengashining 2023-yil 29-may kungi Beruniy hududidagi shahar, shaharcha va ovullar chegaralarini belgilash to‘g‘risidagi VI-67-57-13-182-K/23-sonli qarorining ilovalariga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining davlat kadastrlar palatasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi Beruniy tumani filialining 2024-yil 16-oktabrdagi xatini hamda 2024-yil 14-oktabrdagi Beruniy hududidagi shahar, shaharcha va ovullar chegaralarini belgilash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha tuzilgan ishchi guruh yig‘ilish bayonini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 24-moddalariga asoslanib, Xalq deputatlari Beruniy tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1.O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining davlat kadastrlar palatasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi Beruniy tumani filialining 2024-yil 16-oktabrdagi xatini hamda 2024-yil 14-oktabrdagi Beruniy hududidagi shahar, shaharcha va ovullar chegaralarini belgilash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha tuzilgan ishchi guruh yig‘ilish bayoni inobatga olinsin.

2.Xalq deputatlari Beruniy tumani Kengashining 2023-yil 29-may kungi Beruniy hududidagi shahar, shaharcha va ovullar chegaralarini belgilash to‘g‘risidagi VI-67-57-13-182-K/23-sonli qarorining 1-ilovasi mazkur qarorning 1-ilovasiga muvofiq, 2-ilovasi mazkur qarorning 2-ilovasiga muvofiq o‘zgartirilsin.

Sessiyaga raislik qilivchi KADIROV MAXMUD YULDASHEVICH

Xalq deputatlari Beruniy tumani
Kengashining
2024-yil 10-dekabrdagi
VII-3-012-13-182-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Beruniy tumani shahar, shaharcha va ovullarning chegaralarini belgilash (yoki taqsimoti) to‘g‘risida
MA'LUMOT

№	Shahar, shaharcha va ovullar nomi	Chegara uzunligi (metr)	Yer maydoni (gektar)
1	Abay ovuli	69 077	7 807,03
2	Beruniy ovuli	68 411	13 900,05
3	Biybozor ovuli	92 190	18 569,22
4	Do'stlik ovuli	40 524	6 018,30
5	Mahtumquli ovuli	37 084	3 605,93
6	Navoiy ovuli	45 731	5 356,84
7	Oltinsoy ovuli	43 348	7 841,56
8	Ozod ovuli	41 214	5 070,34
9	Qizilqal'a ovuli	306 458	299 741,49
10	Sarkop ovuli	50 219	5 673,23
11	Shabboz ovuli	34 979	4 214,19
12	Shimom ovuli	50 977	5 039,12
13	Tinchlik ovuli	59 145	8 234,34
14	Bo'lish shaharchasi	9 511	423,85
15	Beruniy shahar	31 460	2 854,45
	Jami	**980 328**	**394 349,94**

Xalq deputatlari Beruniy tumani Kengashining
2024-yil 10-dekabrdagi
VII-3-012-13-182-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumanining shahar, shaharcha va ovullarining ma'muriy-hududiy chegaralarini belgilash ishlari

XARITASI

